



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 26-iyul

364-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyuldagi 385-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 327-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yonish va portlash xavfi yuqori bo‘lgan kimyoviy moddalar bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida” 2023-yil 6-noyabrdagi PQ-357-son qaroriga muvofiq, shu to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-iyuldagi 385-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 23-iyuldagi 327-6-0-Q/24-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlarini shakllantirish va amalga oshirish jarayonlarini samarali tashkil etishga qaratilgan qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” 385-son qarori ijrosi haqida”gi 327-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga quyidagilarni:

bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do‘koni faoliyatini litsenziyalashda kelishiladigan organlar ro‘yxatiga O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasini kiritish;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi tomonidan bojxona nazorati ostidagi kimyoviy moddalar saqlanadigan bojxona ombori hisoblanmaydigan joylar uchun yong‘in va sanoat xavfsizligi talablariga muvofiqligi yuzasidan bojxona organlariga xulosa taqdim etish;

bojxona omboriga joylashtirilishi mumkin bo‘lmagan tovarlarni bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda saqlash talablarini kuchaytirish;

kimyoviy moddalar (mahsulotlar) tarkibiga kiruvchi xavfli yuklarni avtotransport vositalarida tashishda hududiy yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmalarining yo‘l-patrul xizmati tomonidan kuzatib borish tartibini belgilashni nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi e‘tiborga olinsin.

3. Tuman Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Mamajonov) tegishli xizmatlar va boshqarmalar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 5-iyuldagi 385-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov